

YANGI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA YOVVOYI HAYVON OBRAZI ORQALI IJTIMOIY MAZMUNNING IFODA ETILISHI

O‘roqova Nafosat Yoriyevna,

Buxoro davlat universiteti

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: n.y.uroqova@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada yangi o‘zbek she‘riyatida yovvoyi hayvon obrazlari orqali ijtimoiy mazmunning ifodalanish xususiyatlari tadqiq etiladi. Fitrat, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Halima Xudoyberdiyeva ijodi misolida arslon, sher, yo‘lbars, qoplon kabi hayvon obrazlarining ramziy-timsoliy ma‘nolari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yovvoyi hayvonlar obrazlari orqali zulm, jaholat, mustamlakachilik, erksizlik, ma‘rifatparvarlik, inson qadr-qimmatini, milliy xarakter va ruhiy kechinmalar kabi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar badiiy ifodalangani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: yangi o‘zbek she‘riyati, yovvoyi hayvon obrazi, arslon, sher, yo‘lbars, qoplon, ramziy obraz, allegoriya, istiora, ijtimoiy mazmun.

Аннотация. В статье исследуются особенности выражения социального содержания посредством образов диких животных в новой узбекской поэзии. На примере творчества Фитрата, Усмана Насыра, Эркина Вахидова, Абдуллы Арипова и Халимы Худойбердиевой анализируются символично-образные значения таких животных, как лев, тигр и леопард. В ходе исследования показано, что через образы диких животных в художественной форме выражаются социально-философские идеи, связанные с угнетением, невежеством, колониализмом, несвободой, просветительством, человеческим достоинством, национальным характером и духовно-психологическими переживаниями.

Ключевые слова: новая узбекская поэзия, образ дикого животного, лев, тигр, леопард, символический образ, аллегория, метафора, социальное содержание.

Abstract. This article examines the peculiarities of expressing social content through the images of wild animals in modern Uzbek poetry. The symbolic and figurative meanings of such animal images as the lion, tiger, and leopard are analyzed through the works of Fitrat, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, and Halima Xudoyberdiyeva. The study demonstrates that images of wild animals serve as artistic means for conveying socio-philosophical ideas related to oppression, ignorance, colonialism, lack of freedom, enlightenment, human dignity, national character, and psychological experiences.

Keywords: modern Uzbek poetry, wild animal image, lion, tiger, leopard, symbolic image, allegory, metaphor, social content.

Kirish. Ma‘lumki, badiiy adabiyotda predmetlar, o‘simliklar, narsalar, jonivorlar, ranglardan foydalanib yaratilgan simvolik obrazlar tez-tez uchrab turadi. Masalan, shular orasida yovvoyi hayvonlardan tulki – ayyorlik, ohu – go‘zallik, sher – mardlik, jasorat ramzi sifatida kelishi ma‘lum. Xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz she‘riyatda bu kabi hayvon obrazlari an‘naviylik kasb etgan. Shu bilan birga, faqat hayvonobrazi asosiga qurilgan asarlardagi obrazlar allegorik timsollar deb ham yuritiladi. Xarakterli tomoni shundaki, bunda qush, hayvon, hasharot kabilar insonlarga xos bo‘lgan xususiyatga ega qilib ko‘rsatiladi. Aniqroq qilib aytganda, ular insoniyashtiriladi. Natijada, tuzum yoki jamiyatdagi ayrim odamlarning nuqsonlari ustidan hajv qilinadi. Ba‘zida ularning ma‘lum bir kamchiliklari qattiq tanqid ostiga olinadi.

Adabiyotlar tahlili. Yangi o'zbek she'riyatida yovvoyi hayvon obrazlari (arslon, sher, yo'lbars, qoplon) ijtimoiy mazmuni ifodalovchi muhim ramziy vosita sifatida keng qo'llanilgan. Adabiyotshunoslikda bu obrazlar allegorik va metaforik ifoda sifatida talqin qilinadi.

Fitrat ijodida qoplon zulm va mustamlakachilik timsoli, arslon esa ma'rifat va jasorat ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Usmon Nosir she'riyatida yo'lbars obrazida tarixiy adolatsizlik va inson erki masalasi ifodalanadi. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov ijodida arslon ko'proq ma'rifatparvar inson va erkinlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Halima Xudoyberdiyeva ijodida esa hayvon obrazlari insonning ichki ruhiy holati va milliy xarakterini ochib beradi.

Umuman, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yovvoyi hayvon obrazlari yangi o'zbek she'riyatida chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmun tashuvchi ramziy tizim sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda yangi o'zbek she'riyatida yovvoyi hayvon obrazlari orqali ijtimoiy mazmunning ifodalanishini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Asosiy metodlar sifatida tavsifiy, qiyosiy va interpretatsion tahlil usullari tanlandi.

Tadqiqot materiali sifatida Fitrat, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Halima Xudoyberdiyeva she'rlari tanlab olindi. Ularning matnlarida uchraydigan arslon, sher, yo'lbars, qoplon kabi hayvon obrazlari semantik va ramziy jihatdan tahlil qilindi.

Qiyosiy metod yordamida turli ijodkorlar asarlarida mazkur obrazlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va badiiy vazifalari solishtirildi. Interpretatsion tahlil orqali esa obrazlarning allegorik va metaforik ma'nolari ochib berildi.

Shuningdek, tarixiy-genetik yondashuv asosida hayvon obrazlarining folklor va mumtoz adabiyotdagi ildizlari ham qisqacha ko'rib chiqildi. Natijada, obrazlarning zamonaviy she'riyatda ijtimoiy mazmun ifodalashdagi o'rni aniqlab berildi.

Tahlillar va natijalar. Folklordagi turli rivoyat va asotirlarda, qadimiy tasavvurlar va qarashlarga ko'ra, hayvonlar xudo yoki yarim xudo timsolida tasvirlangan.

Yangi o'zbek she'riyatida ham shu an'anaviylik saqlanganligi va ayni choqda, turli ramziy-timsoliy ma'nolarda qo'llanilganligi, ijtimoiy mazmun kasb etganligi kuzatiladi. **Tabiat-insoniyat-hayvonot** uchligi – dunyoni muvozanatda ushlab turgan birliklardir. Odamzot hayotining ilk bosqichlaridanoq ayrim jonivorlarni qo'lga o'rgatib, ulardan turli hayotiy maqsadlarda foydalangan. Ba'zilar oziq-ovqat vazifasini bajargan bo'lsa, ba'zilar ulov o'rnini bosgan. Hatto hayvonlarning insonlarga psixologik tomondan ko'mak berishlari maxsus tadqiqotlarda o'rganilgan. Millatlar geografik joylashuvi, madaniyati, dunyoqarashi, an'ana va urf-odatlariga ko'ra farqli jonivorlar bilan birgalikda yashaganlar va ularning ham tirikchilik tarziga qiziqqanlar. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, dostonlarda ot, tuya, qoramol va qo'y-qo'zi obrazlari turli ma'nolarni ifodalab

kelgan. Chunki ularga yetti xazinaning biri sifatida xotirjamlik, to'kin-sochinlik ramzi deb qaralgan.

Yovvoyi, qo'lga o'rgatilmagan, ya'ni xonakilashmagan hayvonlar, turli jonivorlarning o'ziga xos yashash va himoyalalanish tarzi, ozuqalanish yo'sini, tabiatda bajaradigan vazifalari bor. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda ular shu xususiyatlariga ko'ra turli darajada obrazlantirilgan.

Yangi o'zbek adabiyotida dunyoning badiiy manzarasini yangicha anglash tamoyillari shakllandi. Bu jarayon o'zbek adabiyotining badiiy imkoniyatlarini cheksiz darajada kengaytirib yubordi. Yangicha badiiy tafakkurning maydonga kelishi esa qator iste'dodlarning yuzaga chiqishiga turtki berdi. Rus olimi L.V.Saburova olamning lisoniy manzarasida uy va yovvoyi hayvonlarning o'rni masalasini keng tadqiq qilgan. Unga ko'ra, yovvoyi hayvonlar dunyo manzarasida alohida ahamiyat kasb etadi.[6.15]

Jumladan, yangi o'zbek she'riyatida ham yovvoyi hayvonlar obrazi alohida tizimni tashkil qiladi. Jadid davri o'zbek she'riyatida bir qator yovvoyi hayvonlar obrazi yaratilgan bo'lib, ular xilma-xil ma'nolarni bildirib kelgan. Masalan, Fitratning "Mirrix yulduziga" she'rining ikkinchi qismida qoplon obrazi gavdalantirilgan. Dastlab nido badiiy san'ati bilan boshlangan she'rda go'zal yulduz – Mirrixga murojaat qilinadi. Kerakli o'rinlarda "yerimizning eng qadrlil tuqg'ani" tarzida tilga olinadi:

Bormi senda bizim kabi insonlar,

Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.

O'rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,

Qardosh etin to'yamay yegan qoplonlar. [7.36]

She'rda Mirrix yulduzining yerda bo'layotgan xunrezliklarga chidolmasdan osmonga chiqib ketganligiga diqqat qaratiladi. Yurtimizning ruslar tomonidan bosib olinib, mustamlaka qilinganligi uning boshiga qora kunlarni solganligi rost. Bu jarayonda xalq mahdudlikka muhtalo etildi; dini, madaniyati, ma'naviyati toptaldi. Ma'lumki, mustamlakachilar bunday ishlarni amalga oshirishda mahalliy boylarga, amaldorlarga suyanganlar. Buni "o'rtoq qonin qonmay ichkan", "qardosh etin to'yamay yegan", "qorinqursoq yo'lida, elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar" sifatlashlari tasdiqlaydi. Demak, **qoplon obrazi zulmkor amaldorlar timsolini** ifoda etgan.

Shoirning "O'qitg'uvchilar yurtiga" she'rida **arslon** so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. Badda qo'llangan "ma'rifat arslonlari" birikmasi istiora bo'lib, ilm, ma'rifat ahli – xalqning ziyoli qatlami nazarda tutilgan. Fitrat shunday oydinlar qatorida hamisha yurtining rivojlanishi, ilm-ma'rifatning taraqqiy etishi yo'lida jonbozlik ko'rsatgan. Mustabid tuzum davrida erkka da'vat etish, jaholatni yengishga, ilmli bo'lishga targ'ib qilish jasorat sanalgan. Zero, bu yo'l juda xatarli bo'lganligi bois hamma ham bunga jur'at etolmagan. Shu xususiyatiga ko'ra bunday qatlam jasorati arslonga tenglashtirilgan:

Orqadoshlar, to'planaylik jahlning uyin yiqqali,

El ko'zin olg'an qorong'u pardalarni yirtkali.

Biz erurmiz **ma'rifat arslonlari**, ilm erlari,

To'planaylik, turk elig'a to'g'ri yo'llar ochqali.[7.42]

She'rdan shoirning orqadoshlari, ya'ni do'stlariga murojaatini ko'rish mumkin. Bunda so'nggi va to'g'ri qarorga asoslangan kuchli da'vat ruhi hukmron. "Ellari mahvdan qutqaran ilm erur // Bizlari ham bu kundan o'zi qutqarur" misralarining har banddan keyingi takrori shoir tomonidan shu mavzuga urg'u qaratilganligini anglatadi. Demak, yurti ozod ko'rish uchun, avvalo, jaholatni yengib, ilm-ma'rifatni yoyish, bu yo'lda ziyoli qatlamning birlashishi lozimligi g'oyasi she'rning leytmotivini belgilaydi.

Usmon Nosirning "Nil va Rim" she'ri VI qismdan iborat. Uning V bo'limida "och ko'zlari qonga to'lgan" **yo'lbars** obrazi gavdalangan.:

Ana! Ana tirmog'ini nishlab kelar u,

Changal soldi! Xalq o'rnidan birdan turdi duv...

Chapak chaldi. "Ey, axmoq Rim, sevinma qonga!

Bundan boshqa xo'rlik bormi, axir insonga? ..." [9.25]

U Amfiteatrda o'yin ko'rsatish uchun majburan jangga chiqarilgan gladiatorni yeb qo'yadi. Bundan "o'yindan o'lim kutgan jinni teatr" – Rim ahli zavq tuyadi. Achinarlisi shunda ediki, gladiator qul edi. Ko'hna tarixning guvohlik berishicha, Rimdagi bunday o'yinlarga, asosan, qullar orasidan baquvvat, sog'lomlari tanlab olingan. Demak, insoniyat tarixida ularga nisbatan vahshiylik munosabatda bo'lishgan, inson o'rnida ko'rishmagan. Qullarga nisbatan bildirilgan bunday munosabat – og'ir xo'rlik ortida jaholat yotadi. Ommaning jaholat botqog'iga botishi ma'rifatsizlikning, ilmsizlikning natijasidir. Usmon Nosir mazkur she'ri orqali, aslida, o'z yurtida bo'lib turgan haqsizlik, adolatsizlik ustidan yozg'irgan edi. Faqat buni ramziy tarzda tarixiy voqea zamiriga yashirib ifoda etgan. Bunday yo'l tutishga shoirni mavjud siyosiy tuzum majbur etgan. Binobarin, o'sha yillarda ochiq-oshkora yozishga yo'l qo'yilmas, arziyas sabablar bilan ijodkorlar qamoqqa hukm qilinardi. Xulosa shuki, she'rdan insonning qadr-qimmati ulug'langan bo'lib, uning erki, ozodligi hamma narsadan ustun turishiga bosh qadriyat sifatida qaralishiga umid bog'langanini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Qahramonlari, xalq shoirlari Erkin Vohidov hamda Abdulla Oripov ijodida arslon yoki sher obrazlari alohida o'rin egallaydi. She'rdan ular tashigan ramziy-timsoliy ma'nolar mazkur hayvonning xarakter-xususiyatlari, yashash tarzidan kelib chiqqan holda belgilangani bilan diqqatni tortadi. Jumladan, Erkin Vohidovning "Arslon o'rgatuvchi" she'ri Britaniya Kolumbiyasining g'arbiy qismidagi dinamik dengiz portida joylashgan Vankuver tomoshagohi taassurotlari natijasida yozilgan. Katta hajmli she'r voqeband lirikaning yuksak namunalari qatorida turadi. Unda arslon va arslon o'rgatuvchi o'rtasida bo'lib o'tgan munozara keltiriladi. Mazkur munozaraga sabab bo'lgan voqea esa tomoshagohda arslonning o'z hayotini xavfga qo'yib, olov halqa ichidan o'tib, o'yin ko'rsatishi bilan bog'liqdir. Shunga qisman yaqin, qisman teskari

syujetni biz Usmon Nosirning yuqorida tahlil etganimiz tarixiy lavhalardan iborat she'rida uchratdik:

Rim ustida shamsiyadek tumanli osmon,
Katta sirkka sig'ishmasdan qaynar olomon:
"Odam bilan hayvon o'yin ko'rsatar emish..."

(Bunday qiliq bizning uchun qandayin erish!...).[8.44]

Bunda yo'lbars gladiatorni g'ajib, o'yin ko'rsatadi va shu asosda olomonning olqishiga sazovor bo'ladi.

"Arslon o'rgatuvchi"da esa taqdir arslonni hayvon o'rgatuvchi "no'noq masxaraboz, pastkash bozinger"ga asir qilgan. Bir parcha et yeb, tiriklik uchun kurashishga majbur arslon hissiyotlari axiyri o'zini ko'rsatadi: y o'z egasini ayblab, so'roqqa tutadi. Ammo keyin bilsaki, arslon o'rgatuvchining ham boshida turadigan xo'jayini bor ekan. Tarixning qora sahifalarida yozilishicha, olomon mana shunday turli zavq beruvchi o'yinlar, tomoshalarga o'ch bo'lib kelgan. Zero, bo'sh vaqtini, kuchini, qudratini ma'rifatga, rivojlanishga sarf etmagan millatning tanazzulga yuz tutishi tayin. Moddiy manfaat uchun hayvonlardan, qolaversa, pulga muhtoj (qadimda qullardan) kishilardan foydalanish inson tiyatidagi eng ayanchli qusurlardan sanaladi.

Abdulla Oripovning "Arslon chorlagandi" she'rining lirik qahramoni shoirning o'zidir. U do'sti, davrdoshi Erkin Vohidovga murojaat tarzida yozilgan:

Biz ham yuksaklarga tikkandik ko'zni,
Bizda ham bor edi matonat, bardosh.
Arslon chorlagandi qoshiga bizni,
Lekin qumursqalar bo'ldi safardosh.
Jami tiriklikka tanish shu xatar,
Qumursqa yaralgan yoppa talarga.
Do'stim, alam qilar, arslon bexabar,
Yem bo'lib ketsak shu qumursqalarga.[5.476]

Ma'lumki, arslon – eng kuchli yirtqich. Uning zarbasiga dosh berishning iloji yo'q. Arslon – barcha jonzotlar shohi, ularning yo'l boshchisi. Shu jihatiga ko'ra, she'rdan **arslon** yurtning eng oldi vakillari – **ma'rifatparvarlar obrazini** gavdalantirib kelgan. Mazkur o'rinda shoir ma'no ko'chishining istiora turidan foydalangan. Shoirlar o'z yelkalarida katta mas'uliyatni his qilib yashashadi. Ya'ni xalq dardini kuylash, uning og'ir kunida yo'ldosh bo'lish ularning mahriga tushgan. Shu bois shoir o'zini va o'zi kabi el jonkuyarlarini ulug' maqsadlar yo'lida otlanganlar qatorida sanaydi. Ularni ma'rifat arslonlari o'z safiga chorlaydi. E'tibor beradigan bo'lsak, xuddi shunday g'oya Fitrat ijodida ham mavjud edi. She'rdagi qumursqalar **maydakash, hasadgo'y kimsalarning ramzini** ifodalab kelgan. She'rning lirik qahramoni maqsadga yetolmay qumursqasifatlarga yem bo'lishdan qo'rqadi. Binobarin, shoirlar, ilm ahli, millat oydinlari yulduz misol porlab, yurt osmonini charog'on qilishdek ulkan mas'uliyat bilan yonib

yashaydigan, qalban Haqni tanigan kishilardir. She’rda ma’rifatga, ulug‘ maqsadlarga yetishish yo‘lidagi harakat va orzularga yo‘g‘rilgan g‘oyalar ifoda etilgan. Shu jihatdan she’r **ijtimoiy-falsafiy mazmun** kasb etgan. Demak, Abdulla Oripovning, avvalo, insoniylik, so‘ngra shoirlik maslagini aniq belgilab olishga uringanini ruhan his qilish mumkin.

Shoirning “Arslon va inson”, “Ho‘kiz shoxi” kabi she’rlarida ham hayvon obrazlari badiiy-estetik qiymat kasb etgan. “Arslon va inson” she’ri bu jihatdan e’tiborli. Shoir she’rni ramziy ifodalar orqali boshlaydi. E’tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan jihati shundaki, o‘rmonlar shohi, aslida, sher. Ammo shoir qofiyaga moslab uning variantdoshi – **arslon** so‘zini tanlaydi:

Jami jonzotlardan yolg‘iz bir arslon

Quyoshga ko‘z yummay qarar emish tik.

Balki shu sababdan u sohib o‘rmon,

Jonzotlar ichida yashar behadik.

Inson! Sening uchun haqiqat – quyosh,

O‘zingni tiriklik shohi sanaysan.

Afsuski, boshing xam, ko‘zlaringda yosh,

Qachon quyoshingga sen tik qaraysan?... [4.28]

She’rda arslonning quyoshga tik qaray olishi uning erki, o‘ziga bo‘lgan ishonchidan darakdir. Ya’ni shoir bu o‘rinda arslonsifat – **bir qolipga sig‘maydigan, o‘z erki, g‘ururini ustun qo‘yuvchi inson ramzini** gavdalantirgan. Quyosh esa erk va haqiqat tushunchalarini bildirib kelgan. She’r sobiq tuzum davrida yozilgan. Buni shoirning xalqni erkka, ozodlikka da’vat etuvchi hayqirig‘i ham deyish mumkin. Abdulla Oripov bu she’r orqali erki o‘zida bo‘lmagan xalqni uyg‘oqlikka chorlagan. O‘sha davr mafkurasiga qarshi hurlikka da’vat ruhida yozilgan bu she’r ijodkorning jasoratli, millat manfaatini ko‘zlaydigan chin vatanparvar bo‘lganligini bildiradi.

Muloyimlik, halimlik, kamsuqumlik, andisha azal-azaldan xalqimiz qon-qoniga singib ketgan. Bu fazilatlar ming yillik urf-odat va an’analar zamirida yetilib, ijtimoiy-maishiy hayotda o‘zini namoyon qilib kelmoqda. Halima Xudoyberdiyevaning “Otasidan o‘zganini bildirmas” she’ri ham shunday xulosaga kelishimiz uchun asos bo‘la oladi:

Dardin chetga chiqaradi qaysi sher,

Ona arslon ozganini bildirmas.

Nodon “taqdirni o‘zim yaratdim”, – der,

Qodir xudo yozganini bildirmas... [3.96]

Bir o‘rinda ta’kidlaganimizdek, sher va arslon variantdosh so‘zlar hisoblanadi. **Sher va ona arslon obrazlari** o‘zbekning **erkag-u ayoli timsolini** ramziy gavdalantirgan. Unda millatga xos sabr-toqat, qanoat, kamtarlik fazilatlarini ulug‘langan.

Halima Xudoyberdiyeva keksalarga atab yozilgan bir she’rida ularni qarib qolgan yo‘lbarsga o‘xshatadi. Bunda yo‘lbars yoshi ulug‘ insonlar ramzini ifodalab keladi:

... Bu maslahat yo emas bir dars,
Birga bo‘ling, bo‘lmay holi tang.
Jar labida keksaygan yo‘lbars
Bir-bir bosib yuradi arang.
Mahkam ushlang bir-biringizni,
bola-chaqa ... Baridan ortib
tishda tishlang bir-biringizni,
toki tuproq olmasin tortib .[3.102]

Shoira yosh hoida keksalarga nasihat bergandek tuyulib, o‘zini xijolat his etadi. Ammo ko‘rgan-kechirganlari, kuzatganlari asosida chiqargan xulosasiga tayanib, qariyalar masalasida mulohaza yuritishga qasd qiladi. Unga ko‘ra, keksalik ham bir davr. Bunda inson yana ham ko‘proq mehr-muhabbatga tashna bo‘ladi. Shu bois keksalar bir-birini tushunib, mehr-oqibat ko‘rsatishi, vaqtini birga o‘tkazishi, xususan, oila, bola-chaqadan ortib, o‘zlari uchun vaqt ajratishlari lozimligi uqtiriladi. Zero, she‘r ham “Mahkam ushlang” deya nomlangan, unda insonning insonga g‘animatligi **falsafiy mazmunga** yo‘g‘rilgan.

Ayol o‘tib borar... sho‘x yurib,
shamollarda soch yoygan ayol.
Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib,
sirtidan mayin jilmaygan ayol.

Sen so‘rama, men ham aytmayin... [3.19]

Halima Xudoyberdiyevaning mazkur “Ayol o‘tib borar” she‘rida hazin bir ohang seziladi. Unda ichdan yonib, nurab borayotgan ayol qiyofasini ko‘rasiz.

Shoira ijodida ayolga bag‘ishlab yozilgan manzumalar juda ko‘p. Yuqoridagi she‘rda ham ayolning ichki isyonga limmo-lim, biroq o‘zini namoyon etmagan qalb og‘riqlari aks etgan. “Shamollarda soch yoygan” sifatlashi uning e‘tiborsiz qoldirilganidan, mehrga tashna, darddoshga muhtojligidan darak beradi. Ayolning “ich-ichida o‘kirgan yo‘lbars” esa yillar davomida qalbida yashiringan dard-alamlarini ifoda etadi. Chunki ayol hamma narsani ichiga yutadi, sirtiga chiqarmaydi, biroq bu dardlar botinida yo‘lbarsday o‘kiradi. Bunda shoira yo‘lbarsning xarakteridan kelib chiqib, ayolning ichki ruhiy olamidagi isyonni uning o‘kirishiga o‘xshatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yangi o‘zbek she‘riyatida yovvoyi hayvon obrazlari ijtimoiy mazmuni ifodalashda muhim badiiy vosita sifatida keng qo‘llanilgan. Arslon, sher, yo‘lbars, qoplon kabi obrazlar orqali zulm, jaholat, mustamlakachilik, erksizlik kabi salbiy ijtimoiy hodisalar hamda ma‘rifat, jasorat, erkinlik va inson qadr-qimmatini kabi ijobiy g‘oyalar badiiy ifoda etilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur obrazlar nafaqat ramziy ma‘no tashuvchi badiiy birliklar, balki ijtimoiy-falsafiy mazmuni kuchaytiruvchi estetik vosita hamdir. Har bir ijodkor yovvoyi hayvon obrazini o‘z individual badiiy uslubiga mos ravishda turlicha

talqin qilgan: Fitrat va Usmon Nosir ijodida ular ko'proq ijtimoiy zulm va mustamlakachilikni fosh etish vositasi bo'lsa, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she'riyatida ma'rifat, erk va jasorat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Halima Xudoyberdiyeva ijodida esa bu obrazlar inson ruhiy olami va milliy xarakter ifodasiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аристотель. Поэтика. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 152 б.
2. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Т.: Адиб нашриёти, 2012. – 122 б.
3. Худойберdiyeva Н. Yillar nafasi. Yangi she'rlar. – Т.: Sharq, 2016. – В. 96.
4. Оripov А. Ишонч кўприклари. Шеърлар, таржималар, драматик дoston. – Т.: F.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 28.
5. Оripov А. Йиллар армони. Шеърлар ва дostonлар. – Т.: F.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 476.
6. Сабурова Л.В. Домашние и дикие животные в языковой картине мира вологодского крестьянина. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Вологда, 2018. – Б. 15.
7. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. V жилдлик. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 36.
8. Nosir U. Ertani sevinib kut. She'rlar. – Т.: Adabiyot, 2021. – В. 44.
9. Usmon Nosir. She'rlar, doston va tarjimalar/nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Nodira Rashidova. – Т.: Zabarjad Media, 2022. – В. 25.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934